

**Ra'noxon Madraximova**

*Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan 1-son kasb-hunar maktabi tarix va geografiya fani o'qituvchisi*

**Umarova Guljahon**

*Matematika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalg qilish. Inklyuziv ta'linda, nogironlik turlarining mutanosibligini o'rGANISH, bu boradagi qilinishi kerak bo'ladigan islohotlarning samaradorligini oshirish. Tarix fanini o'qitish usullari.

**Kalit so'zlari:** ta'lim, bolalar, nogironlik, inklyuziv ta'lim, ijtimoly ajiratish, pedagogik maxorat, ota-ona, so'rovnama, YUNISEF- TUD "Ta'limning universal dizayni" bu Inklyuziya.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar tahlili va dastlabki baholash ishlari 1996-yildan boshlandi. Aynan shu yil noyabr oyida YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Milliy komissiyasi tashabbusi asosida Toshkentda maxsus ta'lim sohasida inklyuziv usullar, mavzusida milliy o'quv dasturi muvoffaqiyatli amalga oshirildi. 2001- yil O'zbekiston Xalq Ta'llimi Vazirligi qoshida inklyuziv ta'lim bo'yicha manbamarkazi tashkil etildi. Hozirgi kunga qadar ushbu markaz tomonidan bir necha o'quv seminarlari o'tkazildi. Ko'p yillar davomida yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim maktabiga nisbatan maxsus Segregatsion ta'lim muassasalarida ta'lim, tarbiya berish samarali deb hisoblanib kelindi. Biroq keyingi yillarda izlanishlar shuni ko'rsatmoqda-ki, bolalardagi tug'ma yoki ottirilgan nogironlik turlarining mutanosibligini inobatga olgan holda yosh guruhalidan kelib chiqib, ta'limning barcha turlariga qamrab olish, o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Asosiy qism: Inklyuziya "(inelusion) ya' ni" kiritish", yoki "birgalikda ishtirok etish", jamiyatdagi hayotni barpo etishning maxsus usulini anglatadi. Bu tizim jamiyatimizning barcha jabhalariga tegishli. Bu barcha insonlarning kelib chiqishi, jinsi, jismoniy va ruhiy xususiyatlaridan qat'i nazar jamiyatning turli sohalariga ya'ni kundalik, ta'lim, madaniyat, ish va boshqa jarayonlarda ishtirok etish imkonini beradigan tizim hisoblanadi.

Masalan, Ta'linda inklyuziya bu nogironligi bor bolalarni o'z tengdoshlaridan ajiratmagan holda keng qamrovli bo'lib umumta'lim maktablarida o'qitishni tashkil etishdir. Umuman olganda maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablar boshqalardan ajiralib turuvchi bolalarga erta yoshdannoq ularning jamiyatga to'liq ishtirokini ta'minlashga sharoit yaratishi ularning ijtimoiylashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Inklyuziya umumiyy ma' noda nogironligi bo'lgan shaxslarni (bolalar, ayollar,

**5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR**

keksalar) ni ijtimoiy ajiratishga yo'l qo'ymasdan, barcha insonlarni ijtimoiy jarayonlarga jalg qilish, ularning faol bo'lishlarini va jamiyatda o'z o'rinaliga ega bo'lishga yordam bermog'i zarur. Bolalarning nogiron bo'lib qolishlariga jamiyat, undagi muhit, tushunmovchliklar, yo'l qo'yilgan xatolar sababchi bo'ladi. Demak, bunday bolalarni o'qishi uchun ham shu jamiyatning o'zi jon kuydirishi shart. Bola Huquqlari Xalqaro Konvensiyasidan kelib chiqib, shuni bayon etish mumkunki, yaxshi maktab ta'llimini 3 xil ibora bilan ta'riflash mumkun bular:

mos kelishlik;

rivojlantirivchi;

Inklyuziyani tashkil etilishi;

Bundan shuni anglash mumkun inklyuziv ta'lim nogironligi bo'lgan bolalar ham faqat maxsus maktablarda emas balki, sog'lom bolalar o'qiyotgan umumta'lim maktablarida ham ta'lim olishlari o'rini ekanligi belgilangan. Buning uchun esa pedagogik xodimlar, tarbiyachilar, ota-onalar va bolalar ham inklyuziv ta'lim tizimiga tayyor bo'lishi, maktab darajasi, jismoniy sharoit va o'qishga imkon omillari shu ta'lim talablariga to'la javob berishi kerak. Alovida ehtiyojli bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'z qobiliyat darajasida faoliyat ko'rsatishi, ta' lim olishi, kasb-hunar o'rganishi va rivojlanishi mumkun. 1990 yil Tailandda juda muhim konferensiya o'tkazildi. Bu konferensiya "Ta'lim hamma uchun" maqsadini shakillantirishga qaratilgan bo'lib, unga 155 ta davlat vakillari va 150 dan ortiq nodavlat tashkilotiari qo'shilganlar. Bo'lib o'tgan konferensiya shuni ko'rsatdiki; taxminan 10- 15 foiz bolalar maxsus ta'limga muhtoj ekanligi aniqlandi. Hozirgi kunda O'zbekistonda 250000 ga yaqin turli ko'rinishdagi nogiron bolalar (16 yoshgacha) ta' lim olish ehtiyojiga ega. Maxsus ta'lim muassasalar soni 86 ta bo'lib quydagi yo'naliishlarni qamrab oladi.

18 ta kar va zaif eshituvchi bolalar ta'lim muassasasi;

14 ta ko'zi ojiz va zaif ko'rurvchi bolalar ta'lim muassasasi; 3 ta tayanch harakati azosida;

1 ta nutqida nuqsoni bor bolalar ta'lim muassasasi;

50 ta aqli kamchiligi bor bolalar ta'lim muassasasi mavjud. Umumiyl holda bu ta'lim maskanlarida jami bo'lib, 21153 nafar o'quvchi, 4826 nafar o'qituvchi, 3914 nafar tarbiyachilar faoliyat yuritadilar. Maxsus ta'lim muassasasida ham alovida ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar uchun ta' lim yaxshi yo'lga qo'yilgan deb ayta olamiz. Lekin nogironligi bor bolalarning guruhiy toyifasini inobatga olgan holda, bu guruhi toyifasining yengil, o'rta, og'ir darajada baholanishini nazardan qochirmsandan ya' ni nogironlik turlarining mutanosibligini inobatga olib, ulardagagi holatning yengil, o'rta, darajadagi vaziyatdan kelib chiqib, inklyuziyani tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayanchlisi shundaki, ayrim vaziyatlarda biz mana shu mos kelish holatiga e'tibor bermay, umumta'lim maktablarida ham o'qiy oladigan farzandlarimizni maxsus ta'lim muassasasiga joylanishiga zamin yaratib qo'ymoqdamiz. Bunga sabab inklyuziya haqida barcha birdak yetarli ma'lumotlarga ega emasligi. Shu o'rinda bunday

**5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR**

vaziyatlarda umumiy ota-onalar bilan ishlash o'rinli hisoblanadi. Sitatistik ma'lumotlarga ko'ra 48 foiz ota-onalar inklyuziyani yoqlaydi. Shaxsan o'zim ham "Ota-onalar inklyuziya bilan tanishmi va ular inklyuziyaga rozimi" deb nomlangan so'rovnama olish asnosida ota-onalar bilan suhbat qurganimda ham ularning inklyuziyani ta'limga olib kirish o'rini ekanligini takidlashdi. Bu esa quvonchli. Huquqiy asoslarga yuzlanadigan bo'lsak. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 52-70-soni. 01.12. 2017 yil. Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tog'risigi Farmonning 3 bo'limi ham aynan nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olishlariga qaratilgan; 38-moddadan iborat. Nogironligi bo'lgan shaxslar barcha darajadagi ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishi va o'z qobiliyatlarini yanada to'liqroq rivojlantirish uchun ta'lim olish va davlat hayotida ishtirok etish huquqiga ega deyilgan. O'zbekiston Respublikasida 2020- yil 7- avgustda maqullangan ya'nini taxrirdagi "Ta'lim To'g'risidagi Qonun" ning II-BOB. Ta'lim tizimi, turlari va shakillari deb nomlangan va 20-moddada inklyuziv ta'limga urg'u berilgan. Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan deyiladi. Bizda inklyuziyani tashkil etishda qonuniy asoslar mavjud. Bu esa inklyuziya yo'lidagi islohotlarga zamin yaratadi. Inklyuziyani tashkil etishda biz ta'limda ekskluziya, segregatsiya, integratsiya va inklyuziyaning bir biridan farqi va ularning ahamiyatiga e'tibor berishimiz muhum sanaladi. Demak; Ekskluziya bu ta'limdan tashqarida bo'lgan nogironligi bor bolalar.

Segregatsiya bu nogironligi bor bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktab va maktab-internatlari;

Integratsiya bu- nogironligi bo'lgan bolalar uchun umumta'lim maktablaridagi maxsus sinf inklyuziya bu- nogironligi bo'lgan bolalar boshqa bolalar bilan umumta'lim maktablaridagi birgalikdagi faoliyati nazarda tutiladi. Aytib o'tish o'rini, ayrim chekka tuman hududlarimizda, ekskluziya" ya'ni, ta' limdan tashqarida, nogironligi bo'lgan bolalar borligi ayanchli. Alohida ehtiyojli bolalarni aniqlash ularni ta'limga yo'naltirish oldimizda turgan eng muhum vazifa. Buning uchun ota-ona, mahalla, maktabgacha ta'lim muassasasi, maktab, oliy ta'lim va sog'liqni saqlash bo'limlari birlasha olishi, samarali ishlash tizimini yaratishi bu boradagi yutuqlarga sababchi bo'la oladi. Ayni payitdan to'g'ri tashkil etilgan inklyuziya quydagi yutuqlarga olib keladi.

Tengdosh ottirish-78 foizni; moslashuvchanlik- 68 foizni tashkil etadi.

Tanlovlarda ishtirok etish, o'z imkoniyatlarini namoyish etish-42 foiz natijaga olib keladi. O'zbekistonda inklyuziv ta'limga bosqichma- bosqich o'tishga tayyorgarlik ko'rish maqsadida UNISEF ekspertlari ishtirokida Ta'limning universal dizaynini yaratish uning asosiy tamoyinlarini tushuntirish, TUD ta'limning universal dizaynini, differensial ta'limdan farqlay olish maqsadida fanlar kesimida seminar- treninglar o'tkazildi.

Tarix mavzusiga kelsak, u ilgari sodir bo'lgan voqealar bilan shug'ullanadi. Tarix dasturidagi mavzular odatda o'quvchilarning kundalik hayoti va tajribalaridan uzoqda. Atrofimizdagi o'tmishdan hozirgi kungacha ko'plab tarixiy qoldiqlar va materiallar mavjud bo'lsa-da, tarix o'z mazmuni bo'yicha mavhum mavzu sifatida topilishi mumkin. Tarix darsining ushbu xususiyati tufayli, ayniqsa yosh o'quvchilar o'z vaqtlaridan ancha oldin sodir bo'lgan voqealarni tushunishda muammolarga duch keladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, tarixni bugungi kun bilan bog'lamasdan o'qitishga harakat qilinganligi sababli, ba'zi o'quvchilar nazarida tarix darsi zerikarli, tushunarsiz qator sonlar, raqamlar va buyumlardan iboratdir.

O'tmishimizni hozirgi kunga etkazishda foydalanadigan eng muhim elementlardan biri bu tarixiy muhit. Tarixiy muhitda binolar, yo'llar, qasrlar, tarixiy voqealar va tarixiy ob'yektlar bo'lgan ochiq joylar kabi ko'plab elementlar mavjud. Bundan tashqari, xotiralar, xatlar, xaritalar, gazetalar, rejalar, otkritkalar, shtamplar, tangalar, rasmlar, kitoblar va tarixiy narsalar tarixni o'qitishga hissa qo'shadigan elementlardir. Tarix darslarida tarixiy muhit va narsalardan unumli foydalanish orqali tarix darslarini yanada aniqroq va samaraliroq qilish mumkin. Tarix darslarida tarixni hozirgi kunga yetkazish va bu darslarni yanada tushunarli va qiziqarli qilishning usullaridan biri bu dars mazmuniga materiallar tayyorlash va tegishli o'quv texnologiyalaridan foydalanishdir.

Tarix va tarixiy jarayonlar, siyosiy-tarixiy vaziyat ularning ro'y berishidagi asosiy sabab va xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishda har tomonlama tahlil qilish tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishida katta omil sanaladi. Ayniqsa, turli davrlarda yaratilgan tarixiy ilmiy asarlarda mualliflarning tadqiqot masalalariga turlicha yondashuvlari va fikrlari, xulosalarning turlichaligi, ularni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish va tarixiylik, ilmiylik hamda xolislikka asoslanilgan eng to'g'ri xulosalarni chiqarish bugungi kun tarixchi mutaxassislari oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi. Bugungi kunda tarix fani sohasida ta'lif olayotgan talabalar tarixga oid asarlardan foydalanish, ularni tahlil etish kabi o'zlashtirish uslublari, ulardan foydalanish samaradorligini bilish haqidagi tarixiy tadqiqot uslublari va ilmiy-tarixiy haqiqatga erishish yo'llarini anglashi lozim.

Xo'sh ta' limning universal dizayni o'zi nima? UNISEF bu haqida qanday yangi ma'lumotlar beradi? TUD bu, har xil o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan, barcha o'quvchilarga moslashuvchan yondashuvlar, ta' limdan kutilayotgan natijalar va ularga erishish vositalarini farqlash orqali ta'lif olish uchun imkoniyatlarni beradigan, puxta o'ylangan o'quv tizmi bo'lib u inklyuziyani qamrab oladi. Faoliyat quydgilarni o'z ichiga oladi: o'quvchi, natijalar, faoliyat, baxolash. Inklyuziv ta'limga o'tish mobaynida yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlarni puxta tashkilashtirish, o'qituvchilar uchun qo'llanmalar yaratish va albatta ularni tayyorlash kerak bo'ladi. L. S. Vigotskiyning ilmiy qarashlariga ko'ra, Har qanday ruhiy yoki

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi. Darhaqiqat, har qanday noqulay vaziyatlarni ijobiy tomonga yo'naltirish bu insoniy vazifamiz hisoblanadi.

Xulosa. Bugungi kunda eng dolzbarb bo'lgan muammolardan biri, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan bolalarni himoya qilish, ularni qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlashdan iborat. Bu yo'lida ota-onalar ham, o'qituvchilar ham, va ijtimoiy soha vakillari bir bo'lib faoliyatni olib borishi, bolalar farovonligini ta'minlaydi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Yangi O'zbekiston Strategiyasi" nomli kitobida shunday satirlar joy olgan. "Yangi O'zbekiston Strategiyasining maqsadi yurtimizning baxtli va barkamol insonlar yashaydigan, ijtimoiy adolat tamoyillari to'liq qaror topgan, dunyoning eng rivojlangan, barqaror o'sayotgan va inson kapitali yuqori bo'lgan demokratik davlatlar qatoridan joy olishini ta'minlashdir. Buning uchun aholining barcha qatlamlariga munosib hayot darajasini va turmush sharoyitlarini yaratib berish, ijtimoiy himoya tizimi samarasi, jamiyatning umumiy madaniyati, bag'rikenglik va mehribonlik fazilatlarini yanada oshirish bo'yicha olib borilayotgan ezgu va savobli ishlarmizni yanada kuchaytirishni o'zimizning burchimiz, deb xisoblaymiz"— deya takidlangan. Shunday ekan bu boradagi islohotlarni alohida yordamga muhtoj bolalardan boshlash, ularni ta'limga integratsiya qilish, ijtimoiyadolatsizlikka yo'l qo'maslik, ularning hayotga bo'lgan ishonchini oshiradi. "Ta'limda Inklyuziya" bo'yicha so'rovnama olinib umumta'lim tizim va sog'lom o'quvchilarning o'zları ham inklyuziyaga tayyormi? deyilgan savollarga javob olindi. Eng quvonchlisi shundaki, maktab o'quvchilari ham inklyuziyani ta'limda yoqlashmoqda, ular ta'lim olishga haqli deb fikr yuritdilar. Bu esa ijobiy natijalarga erishishga zamin ochadi. To'g'ri bu yo'nalishda oldimizda qilinishi kerak bo'ladigan ishlar ko'p, kadirlar masalasi, inklyuziyaga oid uslubiy qo'llanmalar yaratish, ta' lim maskanlarini inklyuziyaga moslashtirish va eng asosiysi inklyuziyaga muhtoj o'quvchi bolalarimiz ham o'qituvchilar ham bu jarayonga ruhan tayyor bo'lishlari lozim. Bugungi kunda yurtimizda 86 ta ixtisoslashtirilgan maktabda 21,2 mingdan ortiq, sanatoriya turidagi maktab- internatlarida 6,1 mingdan ortiq, uy sharoitida esa 13,3 ming nafar o'quvchi ta'lim olmoqda. Sitistikaga ko'ra 2020- yil Respublika bo'yicha 13 ming nafarga yaqin o'quvchilar inklyuziv ta' lim bilan qamrab olingan. Prezidentimiz Qarori bilan 2025-yilgacha inklyuziya umumta'lim maktablarida bosqichma- bosqich joriy etish belgilangan. Agar izchil harakat qilinsa ijobiy natijalarga erisha olamiz. To'siq deyilganda biz ko'p hollarda harakat qilishga to'sqinlik qiladigan cheklowlarni nazarda tutamiz. Ammo shuni tan olish kerakki, asosiy cheklov bizning" fikrlash" tarzimizdir. Xulosa qilib shuni aytishim mumkunki inklyuziya bu - har qanday to'siqlarga barham berish demakdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Shavkat Mirziyoyev " Yangi O'zbekiston Strategiyasi" 2021yil.

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

2. Yure Yanson" Inklyuziv ta'lim" Toshkent 2003-yil.
3. Sevara Rahmonova " Difekta logiya asoslari" 4." Inklyuziv ta'lim muvaqqat Nizom 2005-yil.
5. Lola Mo'minova, Mukaram Ayupov, Dilbar Nurkeldiyeva " Maxsus pedagogik".